



MARHAMAT TUMANING GEOGRAFIK O'RNI VA TURISTIK IMKONIYATLARI

Samiyev Uchqun Abdullajonovich

*Andijon davlat pedagogika instituti katta
o'qituvchisi*

Eshimova Feruzaxon Dilmurodjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: akbarovaferuza46@gmail.com*

Anatatsiya: *Ushbu maqolada Andijon viloyati Marhamat tumani va uning geografik o'rnining kelib chiqishi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Tumanning davolashdagi ahamiyati, shuningdek turistik va geografik xususiyatlari haqida batafsil tushuncha berilgan.*

Kalit so'zlar: *Marhamat tumani, xo'jaligi, davolash maskanlari, turistik ahamiyati, geografik xususiyatlar, iqtisodiyoti, aholi.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о происхождении Мархаматского района Андижанской области и его географическом положении. Дается детальное понимание терапевтического значения района, а также его туристических и географических особенностей.*

Ключевые слова: *Мархаматский район, экономика, лечебные учреждения, туристическое значение, географические особенности, экономика, население.*

Annotation: *This article provides information about the origin of the Markhamat district of the Andijan region and its geographical location. A detailed understanding of the therapeutic importance of the area, as well as its tourist and geographical features, is provided.*


Key words: *Markhamat region, economy, medical institutions, tourist significance, geographical features, economy, population.*

Kirish: Marhamat tumani — Andijon viloyatidagi tuman bo'lib, viloyatning janubiy qismida joylashgan. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan va 1963-yilda Marhamat tumani yondosh tuman bilan birlashtirilib, tuman markazi Marhamat tumanidagi Russkoye selo posyolkasiga ko'chirilgan. 1965-yil 15-fevralda tuman nomi o'zgartirilib, tuman markazi hozirgi Asaka shahriga ko'chirilgan. 1970-yil 7-dekabrda Marhamat tumani nomi bilan qayta tashkil etilgan. Aholisining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. Shuningdek, tojik, qirg'iz, rus, tatar, koreys, uyg'ur, qozoq, ukrain va boshqa ham yashaydi. Hozirda tuman aholisi 172 645 kishini tashkil etgan holda, shahar aholisi 136 242 kishi, qishloq aholisi 36 403 kishi (2020). Marhamat tumanida 1 shahar (Marhamat), 1 shaharcha (Polvontosh), 5 qishloq fuqarolari yig'ini (Marhamat, Qorabog'ish, Shukurmergan, Qoraqo'rg'on, Ko'tarma, Mirishkor) bor. Tuman markazi hozir ham Marhamat shahri hisoblanadi.



Asosiy qisim. Geografik o'zni va tabiati — Tumanning shimoliy va shimoliy sharqi qismi tekislik, qolgan qismi tog' etaklari va yon bag'irlaridan iborat bo'lib, Olay tizmasining etaklaridagi tog'lar, Ulug'tog' (balandligi 1500 m), Tuyamo'yin adirlari (balandligi 920 m) birgalikda Oyim—Marhamat—Xo'jaobod botig'ini tashkil etadi. Marhamat tumani shimolda viloyatning Asaka, Buloqboshi tumanlari, sharq va janubda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatining Aravon tumani, g'arbda Farg'ona viloyatining Quva tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,32 ming km² ni tashkil etadi.

Iqlimi keskin kontinental. Iyulning o'rtacha temperaturasi 26,1°, yanvarniki — 2,9°. Yiliga o'rtacha 218-320 mm yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 220 kunni tashkil etadi. Ko'proq sharqiy shamollar esadi. Vaqtincha shamollar janubiy - g'arbdan esadi. Tuman hududidan Qoradaryoning quyi irmoqlari: Shahrixonsoy, Janubiy Farg'ona va Karkidon kanallari oqib o'tadi. Tuman yerlari Janubiy Farg'ona kanali va Aravonsoydan sug'oriladi. Tuproqlari, asosan, bo'z tuproq, adirlar etaklari o'tloqi bo'z, o'tloqi, botqoq-o'tloqi tuproqlar tarqalgan. Yovvoyi o'simliklardan shuvoq, sho'ra va boshqililar, efemer va efemeroidlar, soy bo'ylarida va yer osti suvlari yuzaroq joylarda tol, terak, turli xil butalar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan tulki, bo'ri, chiyabo'ri, quyon va boshqalar yashaydi.



1-rasm. Andijon viloyati Marxamat tumani massivlarining joylashgan o'zni



Iqtisodi — Marhamat tumanida ko'plab zavot va korxonalar shuningdek ip yigiruv va to'quv fabrikasikasi, elektrotexnika, non, meva va sabzavotlarni qayta ishlash va vino quyish zavodlari, „UzRospodshipnik“ qo'shma korxonasi, „O'kchi“ paxta tozalash zavodi hamda qurilish, transport va aloqa, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari bor. Shuningdek, xususiy tadbirkorlik ham rivojlangan. Tumanda 250 dan ortiq kichik korxonalar, dehqonchilik va fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatadi.

Marhamat tumanidagi melioratsiya va suv xo'jaligi, agrobiznes kollejlari, kasb-hunar litseyi, kasb-xunar maktablarida 2800 dan ziyod o'quvchi o'qiydi. 40 dan ortiq umumiy ta'lim maktabida qariyb 28 ming o'quvchi ta'lim oladi. 2 ta musiqa maktabi mavjud. 6 ta madaniyat uyi, 35 ta kutubxona (374 ming kitob), „Parvona“ xalq, teatri, sirkdorbozlik guruhi, muzey aholiga xizmat ko'rsatadi. 770 o'rinli 26 ta davolash maskani va kasalxonalar bo'lib, ularda 270 ga yaqin vrachlar ishlaydi. „Oq oltin“ tuman gaz. 1933-yil 1 oktabrdan chiqadi (adadi 2500).

Turistik imkoniyatlari — Andijon viloyati, Marhamat tumani, Tandirchi qishlog'ida yer sathidan 700 metr balandlikda, tog' cho'qqisida joylashgan. "TOZA HAVO" ekokurort sihatgohiga dam olish davolanish maskani hisoblanadi. Bu yerda davolash manbaalari: Manfiy ionlar, toza havo, Manadiy mineral suv, Fizioterapiya va Tuya suti, Broxit, Brontxial astma, Umurtqa osteoxondrozi, Disk churrasi, Gepatit, Jigar tserrozi, tetraparez, ДЦП va nevrozlar keng va tabiiy yo'llar bilan davolaniladi. Bu "TOZA HAVO" EKOKURORT-SANATORIYASI ko'rib chiqish statistikasi 70 Joriy oy uchun statistika 2023 yil dekabr 192, o'tgan oyning statistikasi 2023 noyabr 712, So'nggi 3 oylik statistikasi noyabr - sentyabr 3148, yil statistikasi 2022 yil dekabr - 2023 yil noyabrgacha 5192, 2011 yil 07 iyundan boshlab] davrdagi statistika. Bundan tashqari "Erkin Vohidov" shaxmat maktabi va "O'zbekiston davlat kutubxonasi" ham Marhamat tumanidagi e'tibor markazidagi joylardan hisoblanadi.

Shu jumladan Marhamat tumanida turizm ham o'ziga xos darajada rivojlangan. Tuman hududida etiborga loyiq joylar juda ko'p bo'lib, tarixiy va arxeologik yodgorliklar alohida ahamiyatga ega. Tumanda joylashgan "Ming tepa" arxeologik merosi obekti ham asosan ichki turistlarni keng qamrovda jalb etib kelmoqda. Ayniqsa yaqin atrofdagi mahalliy aholi hamda maktab o'quvchilari tashrif buyurishi yuqori darajada. Bundan tashqari Marhamat tumanidagi "Qadimiy bino" (1890 - yil), "Qabul" (1965 - yil), "Motamsaro ona" (1990 - yil), "Muhammad Yusuf" (2004 - yil), "Oq to'nli ota" va boshqa shu kabi ziyoratgohlarni ham turizmga hissasi ortib bormoqda.



Marhamat tumaniga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Bu ko'rsatkich xorijiy sayyohlar 2018-yil hisobi bo'yicha 939 kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yil hisobi bo'yicha 1095 kishini tashkil etgan. Ya'ni 156 taga ortgan. Mahalliy sayyohlarni hisobga olsak 2018-yil bo'yicha 628 kishini tashkil etgan. 2019-yil hisobi bo'yicha 1102 kishi, ya'ni 474 taga ortgan. Shundan ko'rish mumkinki kam miqdorda bo'lsada turizm sohasi yanada rivojlanmoqda.

Turizim sohasining ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	2018 yil	2019
1	Tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar (soni)	939	1095
2	Tashrif buyurgan mahalliy sayyohlar (soni)	628	1102
3	Turizim xizmatlari eksporti hajmi (ming AQSH dollar)	1796	2050

Xulosa: Andijon viloyati Marhamat tumani geografik o'rnini qulay joylashganligining asosiy sabablaridan biri bu shundaki janubiy qismida Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyati bilan chegaradoshligi hisoblanadi. Shu jumladan tuman qishloq ho'jaligi mahsulotlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mahsulot sifatini yaxshilab, eksport hajmini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari turizmni rivojlantirish loyihasini amalga oshirilishi tariximizni, o'zligimizni anglashga xizmat qiladi. Shu maqsadda maktab o'quvchilarini sayohatga olib kelish darkor va albatta turistik sharoitlarni yaxshilab, turistlarni jalb qila oladigan darajada turizm obektlari, oshxona, mehmonxona va turli xil ko'ngil ochar joylar tashkil etish ham bu sohani rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marhamat tumanining statistik axborotnomasi. 2018-2018-yil ma'lumotlari.
2. <https://uza.uz/posts/72500>
3. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. Oltariq tumaning geografik o'rni va iqtisodiyoti.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Khayrullaevna, K. G. (2020). The functions of nonverbal means in dialogic speech. Journal of Critical Reviews, 7(15), 6174-6183.